



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Aholi Jon Boshiga Togri Keladigan Daromad Miqdorini Oshirish -Bu Makro Iqtisodiy Barqarorlikning Muhim Korsatgichidir**

**Sodiqbekova .Z. S**

RTU “Iqtisodiyot “ kafedrası, zuhrasadikbekova@gmail.com

### **Anotatsiya**

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad miqdorini oshirish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy omillaridan biridir. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatdagi iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik va bandlik darajasini belgilovchi muhim mezon hisoblanadi. Shu sababli, davlat siyosati va iqtisodiy islohotlar daromadni oshirishga, kambag‘allikni kamaytirishga va iqtisodiy tenglikni ta‘minlashga qaratilishi kerak.

**Kalit so‘zlar:** Makroiqtisodiy barqarorlik, jon boshiga daromad, iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy farovonlik, bandlik.

Har bir mamlakatning makro iqtisodiy barqarorlik deganda quydagi iqtisodiy korsatgichlarning: Yalpi talab va yalpi taklif, tolov balansi ,budjet daromadlari va harajatlari , jamgarma va investitsiyalarni muozanatda bolishi tushuniladi . Shuningdek Jahon hamjamiyatida makro iqtisodiy barqarorlikning muhim korsatgichlardan biri -aholi jon boshiga togri kelgan yalpi ichki mahsulotning ulushidir.

Ozbekiston Respublikasi Prezidenti 2023- yil 11- sentabr PF -158-son farmoniga asosan qabul qilingan Ozbekiston – 230 strategiyasida Respublikamiz yalpi ichki mahsulot hajmini 160 mlr dollarga yetgazish va aholi jon boshiga togri keladigan daromad miqdorini 4000 dollarga yetkazish belgilangan<sup>1</sup> . Bu esa mamlakatimizni Jahondagi orta rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishini taminlaydi, mamlakatimiz aholisini turmush darajasini yanda yaxshilashga imkon yaratadi.

Bunga qanday erishish mumkin- Songi yillarda mamlakatimizda yaratilgan qulay makro iqtisodiy sharoit hisobiga milliy iqtisodiyot barqaror rivojlandi.Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarida yirik investitsiya loyhalari oshirildi, hududlarning mavjud salohiyatidan kelib chiqqan holda yangi ishlab chiqarish korxonalar ochilib hizmat korsatish sohalarida qator loihalar yolga qoyildi.

Bu esa mamlakatdagi ishsizlik darajasini songi ikki yilda deyarli 2 % ga yani 2023 yilda 9,1 % gacha kamayishida muhim omil boldi. Bunday korsatgichlarda erishishda mamlakatimiz eksportini 2023- yilda 2022- yilga nisbatan 23.8 % ga oshdi . uning tartibida

Aholi soni turlicha darajada bolgan dunyo mamlakatlarini xalqaro darajda taqqoslash uchun harid qobilyati boyicha aholi jon boshiga YIM ni vertical va gorizontal tahlil etish maqsadga muvofiq.

YIM ning bozor almashinuv kursiga asoslangan olchovlardan foydalanganda global YIM ning 63 % yuqori daromadli mamlakatlarga 27% yuqori ortacha daromadli mamlakatlarga va atiga 9 % past ortacha daromadli mamlakatlarga togri keladi . 2023 yillarda Ozbekiston iqtisodiyotida sezilarli osish kuzatiladi ,ushbu osish iqtisodiyot turli tarmoqlarning YIM ga qoshgan xissasi oshgan bilan taminlanadi. Shu bilan birga mazkur davrda sanoat tarmogining YIM ga qoshganxissasi 2,9 % xizmatlar sohasiniki esa 22,4 ga oshganligini kuzatish mumkin.

Amalga oshirilgan qator tarkibiy islohotlar natijasida aholining bank hizmatlari bilan qamrab olinishidarajasi kengaydi .Inflyatsiya narx barqarorligi va iqtisodiyot umumiy salomatligini muhim korsatgichidir.

Iqtisodiy osishni ragbatlantirish va milliy valyutaning sotib olish qobilyatini saqlashga qaratilgan chora tadbirlar infilatsiy darajasini 2023 yilda 12, 3 % miqdorida bolishini taminlanadi . Korib chiqilayotgan davrda budjet harajatlarning asosiy qismi ijtimoiy soh ava aholini ijtimoiy qollab quvvatlashga yonaltirildi.Ijtimoiy harakatlarning deyarli 80% talim sogliqni saqlash hamda nafaqalar ,moddiy yordam va kompensatsiya xarajatlari tashkil etdi .

Shuningdek ,YIM miqdorini160 mlrd dollargacha ,eksport xajmini 45 mlrd dollargacha oshirish choralari korildi . bunday maqsadlarga erishish uchun 2023-2030 yillar mobaynida iqtisodiyotga 250 mlrd dollar investitsiyalar yonaltiriladi . r soz bilan aytganda mamlakatdagi makro iqtisod iy osish axolini farovonligini taminlash turmush tarsi va yashash sifatini oshirish hamda pirovardida aholini rozi qilishga qaratildi va bu maqsad toliq uddalanadi desak mubolaga bolmaydi .

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham boshqa ustuvor vazifalar bilan bir qatorda, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o'sishiga erishish, raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirish, investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy resurslarni ko'paytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksaltirish, eksport salohiyatini oshirish choralari ko'zda tutilgan.

Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish, respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga etkazish maqsad qilingan.

Eksport masalalari muhokama qilinar ekan, tashqi bozordagi bugungi vaziyatdan kelib chiqib, transport va logistika masalalarini hal etish, eksport geografiasini kengaytirish, mahsulotlarni yangi bozorlarga chiqarish bo'yicha topshiriqlar berildi. Zero, eksport – iqtisodiyot barqarorligining asosiy omilidir.

Yurtimizda yangi korxonalar ishga tushirilishi aholi bandligini ta'minlash, turmush farovonligini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Natijada minglab, o'n minglab yoshlar ishli bo'lyapti, daromad topyapti. Tayinli ishi bor odamning esa ko'ngli to'q bo'ladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi, bunyodkorlikka, yaratuvchanlikka intilib yashaydi.

Aholi jonboshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorini oshirish uchun bir qancha yo'llar mavjud. Bu, asosan, iqtisodiyotning o'sish sur'atini tezlashtirish, mehnat unumdorligini oshirish, bandlikni ta'minlash va inflyatsiyani nazorat qilish kabi omillarga bog'liq.

Shavkat Mirziyoyev kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 barobar oshirish vazifasi oldinda turganligini ta'kidladi. Shuningdek, prezident 2023 yil oxirigacha inflyatsiya darajasi 5 foizga tushirilishini aytib o'tdi.

Shuningdek, prezident 2023 yil oxirigacha **inflyatsiya darajasi 5 foizga tushirilib** aytib o'tdi. Ma'lum qilinishicha, davlat budjeti taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan **2,5 foizdan oshmasligi** ta'minlanadi.

«Bevosita aholining talablari asosida yiliga **1,5 — 2 trln so‘m mablag‘** joylardagi eng dolzarb muammolarni hal etishga sarflanadi. Yangidan jalb qilinadigan yillik tashqi qarz miqdori **5 mlrd dollardan**, umumiy davlat qarzi esa yalpi ichki mahsulotning 50–60 foizidan oshmasligi ta‘minlanadi», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Kelgusi besh yilda 120 mlrd dollar, shundan kamida 70 mlrd dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi ta‘kidlandi.

Qo‘shimcha qilinishicha, mamlakatning eksport salohiyati 1,7 barobar oshirilib, 2026 yilda 30 mlrd dollarga yetkaziladi.


«Eksport tarkibida xomashyoning ulushi hozirgi 46 foizdan 23 foizga kamayib, tayyor mahsulotlar hajmi 2,5 barobar ko‘payadi», — dedi prezident.

Oldinroq, O‘zbekiston hukumati aholi jon boshiga YAIMni hozirgi paytdagi 1700 dollardan 2025 yilgacha 2500 dollarga va 2030 yilgacha bo‘lgan muddat ichida 4200 dollarga yetkazishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yganligi haqida xabar berilgan edi.

**2023-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘sishi 102,4 foizni tashkil etdi (2022-yilda 107,3 foiz). Mamlakat bo‘yicha jon boshiga umumiy daromadlar 20 mln so‘mni tashkil etdi, eng yuqori ko‘rsatkich Toshkentda (44,4 mln so‘m), eng quyi ko‘rsatkich esa Qoraqalpog‘istonda (14,5 mln so‘m) qayd etildi.**

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar **20 mln so‘m**ni tashkil etdi va ko‘rsatkichning **nominal o‘sishi 112,6 foiz, real o‘sishi esa 102,4 foiz** darajasida bo‘ldi (2022-yilda 107,3 foiz bo‘lgan). 2023-yilda aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi Toshkent shahrida (44 mln 427 ming 900 so‘m) va Navoiy (31 mln 445 ming 600 so‘m), Buxoro (23 mln 480 ming 300 so‘m), Toshkent (20 mln 730 ming 200 so‘m) hamda Xorazm (20 mln 76 ming 600 so‘m) viloyatlarida **o‘rtacha respublika darajasidan yuqori ko‘rsatkichlar** qayd etildi.

### Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi



### 1-jadval

Eng quyi ko'rsatkichlar Qoraqalpog'iston Respublikasi (14 mln 570 ming so'm), Namangan (15 mln 070,6 ming so'm) va Farg'ona viloyatlarida (15 mln 716 ming 500 so'm) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi Toshkent shahri (7,6 foiz), Navoiy (5,7 foiz), Sirdaryo (4,4 foiz), Andijon (4,4 foiz) va Jizzax (4,3 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Xorazm (-6,4 foiz), Surxondaryo (-0,8 foiz), Samarqand (-0,5 foiz), Buxoro (-0,4 foiz), Namangan (-0,3 foiz) viloyatlarida jon boshiga umumiy daromadlar real ko'rsatkichi pasaygan.

### Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlarning eng yuqori real o'sishi



2 - jadval

**O'zbekistonda 2030-yilga kelib aholi jon boshiga daromad 4 ming dollardan oshiriladi, inflyatsiya miqdori esa - 5%dan kamaytiriladi**

**Undan tashqari, iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi. Buning uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:**

1. 2023 yil oxirigacha inflyatsiya darajasi 5 % ga tushiriladi.
2. Davlat budjeti taqchilligi YaIMga nisbatan 2,5 %dan oshmasligi ta'minlanadi;
3. Aholi talablari asosida yiliga 1,5 – 2 trillion so'm mablag' joylardagi eng dolzarb muammolarni hal etishga sarflanadi.
4. Yangidan jalb qilinadigan yillik tashqi qarz miqdori 5 milliard dollardan, umumiy davlat qarzi esa yalpi ichki mahsulotning 50-60 foizidan oshmasligi ta'minlanadi;

5. Kelgusi 5-yilda 120 milliard dollar, shundan kamida 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilinadi.
6. Mamlakatimizning eksport salohiyati 1,7 barobar oshirilib, 2026-yilda 30 milliard dollarga yetkaziladi.
7. Eksport tarkibida xomashoning ulushi hozirgi 46 foizdan 23 foizga kamayib, tayyor mahsulotlar hajmi 2,5 barobar ko'payadi.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad miqdorining oshishi mamlakatning iqtisodiy o'sishi va makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich aholining turmush darajasini yaxshilash, ichki iste'molni rag'batlantirish hamda iqtisodiy faollikni kuchaytirish orqali umumiy iqtisodiy tizimning muvozanatini saqlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu daromad ko'rsatkichini izchil oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

#### **Asosiy adabiyotlar.**

1. Asqarova, M. T.; Zaxidov, G'.E.; Djumayev, Z. A.. *Makroiqtisodiyot (Darslik)*. TDIU, 2019 — 290-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286- sonli "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i
3. © 2008-2025 «Gazeta» Yangiliklarimiz xalq uchun.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi 286- sonli buyrug'iga 1-ilova. "Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish va nazorat qilish" bo'yicha yo'riqnomasi. 4. Фатхуддинов Р. А. "Инновационный менеджмент" М. ЗАО Бизнес школа «Интел-Синтез»
5. Балабанов И.Т. «Инновационный менеджмент» М. «Питер» 2001
6. Набихўжаев А., Шеров Ю., Султонов П. Макроиктисодий барқарорлик кўрсаткичлари ва уларнинг Ўзбекистондаги динамикаси. Иқтисодий назария. №2, 2011. – Б. 20-29